

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



TASHQI IQTISODIY MUNOSABATLAR SHAROITIDA TASHQI SAVDO VA BOJXONA MEXANIZMLARINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI.

Adizov Sardor Rashidovich

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Bojxona qo'mitasi mas'ul xodimi. Mustaqil izlanuvchi



Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatning savdo bozorini tovarlar bilan ta'minlashda, ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda hamda mamlakat bozorini raqobatbardosh qilishda amalga oshirilayotgan islohotlar aks ettirilgan. Shuningdek, davlatimiz tomonidan tashqi savdo uchun yaratilib berilayotgan qulay sharoitlar o'z aksini topgan. Mamlakatda tovarlar tranzitiga qulay sharoitlar yaratish hamda milliy tovarlarimizning boshqa davlatlar orqali harakatlanishini yanada ommalashtirish g'oyalari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yagona darcha, bojxona organlari, elektron bojxona yuk deklaratsiyasi, tadbirkorlik faoliyati, tashqi savdo.

Аннотация: В данной статье отражены реформы, которые осуществляются в сфере обеспечения товарного рынка страны товарами, повышения производственного потенциала, повышения конкурентоспособности рынка страны. Также отражены благоприятные условия, созданные нашим государством для внешней торговли. Выдвинуты идеи создания благоприятных условий для транзита товаров внутри страны и популяризации движения наших национальных товаров через другие страны.

Ключевые слова: единое окно, таможенные органы, электронное грузовое таможенное декларация, предпринимательская деятельность, внешняя торговля.

Abstract: This article reflects the reforms that are being carried out in the field of providing the country's commodity market with goods, increasing production potential, and increasing the competitiveness of the country's market. Favorable conditions created by our state for foreign trade are also reflected. Ideas have been put forward to create favorable conditions for the transit of goods within the country and to popularize the movement of our national goods through other countries.

Key words: single window, customs authorities, electronic cargo customs declaration, entrepreneurial activity, foreign trade.

KIRISH

Bugungi kunda "Raqqamli iqtisodiyot"ga kirib borayotgan va unda keskin rivoj topayotgan tashkilot va organlardan biri sifatida bojxona organlarini misol qilsak mubolag'a bo'lmaydi. Bojxona organlari faoliyatida mavjud avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining yaxlit majmuasi bojxona to'lovlarini to'g'ri undiruvchan, rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish, tovar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini tashkil etish, ehtimoliy xatoliklarni oldini olish va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga qulayliklar yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat bojxona qo'mitasi veb-saytida hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida interaktiv xizmatlar amaliyotga joriy etilgan. Xususan, "Tovarlarni elektron deklaratsiya qilish" interaktiv xizmati tashqi savdo ishtirokchilari va deklarantlar uchun qulayliklar yaratmoqda. Bu esa o'z ish joyidan turib bojxona yuk deklaratsiyalari va unga ilova hujjatlarni elektron tayyorlash va internet orqali bojxona organlariga taqdim etish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga yanada qulaylik yaratish, bojxona organlari tomonidan ko'rsatilayotgan elektron xizmatlarni yagona manzildan turib taqdim etish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida orqali ham "Bojxona organlariga elektron bojxona yuk deklaratsiyalarini taqdim qilish" xizmati joriy qilingan. Eng ommalashgan interaktiv xizmat turlaridan biri TIF subyektlari tomonidan tashqi savdo kontraktlari bo'yicha ma'lumotlarni elektron shaklda taqdim qilish bo'lib, tadbirkorlar endilikda shartnoma va boshqa tegishli hujjatlarni bojxona postiga qog'oz ko'rinishida olib kelishlariga hojat qolmadi. Tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida Davlat bojxona qo'mitasida eksport va import yuklarini bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan 20 turdan ortiq ruxsatnoma hujjatlarini internet yordamida, onlayn rejimida olish imkonini beruvchi "Yagona darcha" BAT amaliyotga joriy qilindi. Ushbu tizim 2017-2021 yillarda O'zbekiston



Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi loyihasida bojxona organlari oldiga qo'yilgan vazifalar sifatli va samarali bajarilishida muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi.

"Yagona darcha" BAT – bu "One-stop service" tizimi (bir joyda jamlangan xizmatlar) bo'lib, unda tashqi savdo ishtirokchisi turli xil import talablari to'g'risida umumiy fikr olishlari mumkin. Axborot texnologiyalari rivoji davlat idoralariga xizmat ko'rsatishda sezilarli muvoffaqiyatlarga erishishga imkon berdi.

Sodda qilib aytganda, endi tadbirkorlarimiz idoralaridan chiqmasdan turib, internetdagi www.singlewindow.uz manzilida joylashgan "Yagona darcha" BAT orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab etiladigan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va sertifikatlarini olish uchun ariza yuborishi mumkin. Arizaga javoban berilgan hujjatlar va sertifikatlar mazkur portal orqali bir vaqtning o'zida ham tadbirkorga, ham bojxona organlariga bojxona rasmiylashtiruv uchun taqdim etiladi.

METODOLOGIYASI

Tadbirkorlar portal orqali ruxsatnoma va sertifikatlarining haqiqiylikini tekshirish, hujjatlarining shakllari, bojxona tariflari va rejimlari, eksport va import ko'rsatkichlariga doir foydali ma'lumotlarni ham olishlari mumkin. Portaldagi xavflarni tahlil qilish tizimi esa tadbirkorlarga tovarlar importi va eksportiga doir faoliyatini to'g'ri rejalashtirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, tadbirkorlik va turizmni jadal rivojlantirish, investitsiya va eksport salohiyatini oshirish, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvining shaffofligini ta'minlash, shuningdek, bojxona organlariga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng jalb etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bojxona ishiga yangi interaktiv xizmatlar, "Xavfni boshqarish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishi hamda "vakolatli iqtisodiy operator" instituti faoliyatini yo'lga qo'yilishi orqali bojxona ma'murchiligining murakkab tartib-taomillari soddalashtirildi. Shu bilan birga, amaliyotga bojxona ma'murchiligining zamonaviy usullarini joriy etish, takomillashgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga qo'llash, "Yagona darcha" bojxona axborot tizimidan samarali foydalanish, bojxona xizmatini xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlashtirish hamda xodimlarning ilmiy salohiyatni oshirish masalalari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Demak, idoralararo ma'lumotlar almashinuvi, birinchi navbatda, real vaqt rejimida amalga oshirilishi kerak, ikkinchidan, ma'lumotlar almashinuvi avtomatik tarzda yagona ma'lumotlar bazasiga kiritilishi kerak. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, idoralararo ma'lumotlar almashinuvini amalga oshirishda almashilgan axborot ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tishni nazorat qilish sharti bilan ularning ishonchililigi va to'liqligini ta'minlash vazifasi dolzarb masala hisoblanadi. Ma'lumotlar almashinuvini tashkil qilish hamda idoralararo axborot tizimlarini integratsiyalash masalasi ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan bo'lib, u tobora rivojlantirib borilmoqda. Bunga misol sifatida Bannov I.A.^[2], Polyanskiy D.A., Monaxov M.Yu.^[3], Urinsov A.I.^[4] va boshqalar ishlarini keltirish mumkin.

Xususan, ^[2] ishda tarmoqlangan tizimlarda Java. texnologiyasidan foydalangan holda ma'lumotlarni almashish jarayoni o'rganilgan. Ma'lumot almashish sohasida qo'llaniladigan zamonaviy Java. texnologiyalari tahlil qilingan va obyektlarning axborot almashinuvi tizimini real vaqt rejimida joriy etish uchun Java. RMI, CORBA, Web – servis, SOAP i EJB texnologiyalarining tavsifi berilgan.

Korporativ axborot uzatish tarmog'idagi obyektlar bilan axborot almashinuvi jarayonida ma'lumotlar ishonchililigi va to'liqligini ta'minlash masalasi bir qator mualliflar tomonidan tadqiq etilgan. Ma'lumotlar almashish vositasi sifatida qo'llaniluvchi axborot-telekommunikatsiya tizimlarida axborot ishonchililigini ta'minlashning quyidagi beshta o'ziga xos tamoyillari aniqlangan: "Inson omili", "Ixtiloflar muhiti", "Keng ko'lamlilik", "Ko'p bog'lamlilik" va "O'z-o'zini tashkil etish". ^[3] Elektron ma'lumotlar almashinuvini tashkil etish bo'yicha asosiy qo'llanmalardan biri hisoblanadi. Unda markazlashgan va taqsimlangan ma'lumotlar bazalari uchun elektron axborot almashuvining bir nechta turlari ko'rib chiqilgan bo'lib, ushbu masalani yechish usullari va ularning kuchli hamda zaif tomonlari tahlil qilingan. ^[4] Barcha yuqorida keltirilgan va boshqa tadqiqot ishlari ma'lumotlarning ishonchililigi va to'liqligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda amaliyotda mavjud texnologik infratuzilmalarni inobatga olgan holda aytilish mumkinki, ushbu muammoning o'рни alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday axborot almashish tizimida ma'lumotlar ishonchililigi va to'liqligi bo'lmas ekan, uning samaradorligi bo'lmaydi.

Bundan tashqari, Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalari asosida O'zbekistonda bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, "Qog'ozsiz va elektron bojxona" tizimini rivojlantirish, mazkur tizimning mantiqiy davomi bo'lgan "Raqamli bojxona"ni shakllantirish, shuningdek, kontrabanda, kontrafakt mahsulotlarni olib o'tish, korrupsiya, noqonuniy valyuta operatsiyalari va bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi




kurashishning zamonaviy va sinovdan o'tkazilgan usullarini joriy etish hamda bojxona ishi sohasidagi umum e'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Bojxona ma'murchiligini rivojlantirishda zamonaviy chora-tadbirlarni amalga oshirish bojxona ma'murchiligi bilan bog'liq jarayonlarni avtomatlashtirish, bojxona nazorati samaradorligini oshirish, tadbirkorlar bilan o'zaro aloqalarni asosan elektron shaklda olib borilishini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining vaqti hamda moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan.

Bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish va yangi bosqichga olib chiqish bugungi kun talabi demakdir. Zero, har bir rivojlanayotgan va barqaror iqtisodiyotni yo'lga qo'yishni istagan davlat o'z xizmatlari sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va vaqtni tejash maqsadida xizmatlarni avtomatlashtirishni, inson faktorini kamaytirib korrupsiya illatini yo'qotishni maqsad etib belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar davlat iqtisodiyotining uslubiyati tanloviga daxldor bo'lib, bozor iqtisodiyotini o'rganishni va biznes jarayonlarida qo'llaniladigan eng samarali usullardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday sharoitda o'zining samaradorligini ko'rsatadigan, barcha bo'g'inlarning bir biriga bog'liqligini ta'minlab beradigan, bojxona organlari oldida turgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan yangi bojxona ma'murchiligini o'zida aks ettiruvchi strategiyani qabul qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.



1-rasm: 2018-2024 yillar jahon transport-logistika tarmog'i xizmatlarining prognoz ko'rsatkichlarining qiymati (trln. AQSH dollari hisobida).

Davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoni rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyasini kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashuvini taqozo etmoqda.

Hozirgi bozor islohotlari yangi strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlat strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning o'ziga xos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan holda, jahon bozorining salbiy o'zgarishlaridan himoya qiluvchi, unda egallangan mavqelarni saqlab qolish va kengaytirishni ta'minlovchi optimal proteksionizm va erkin savdo siyosati qo'llanilishini taqozo etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshiriladi. Lekin tartibga solishning shakllari va usullari, aniq maqsad va vazifalari har bir mamlakatning katta-kichikligi, jahon xo'jaligida tutgan o'рни, davlatning ichki va tashqi siyosatidan kelib chiqib belgilanadi. Dunyoning har bir davlatida bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni notarif usullarini texnik choralar, ya'ni xorij mamlakatlaridan keladigan tovarlarga nisbatan milliy, texnik, ma'muriy hamda boshqa turdagi me'yorlar va qoidalar qo'llaniladi. Eng ko'p tarqalgan texnik choralar qatoriga milliy standartlarga amal qilish, import tovarlari xavfsizligini tasdiqlovchi sertifikatni olish, tovarni maxsus tarzda markirovkalash va o'rash-qadoqlash kabi talablar kiradi. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilaridan import, eksport va tranzit bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish uchun davlat organlariga bir qator axborotlar va hujjatlarni tayyorlash va taqdim etishni talab etadi. Ushbu ma'lumot va hujjatlarni ko'pincha o'ziga xos (qo'lda topshiriladigan yoki avtomatlashtirilgan) tizimlardan va qog'oz hujjat namunalaridan foydalanadigan bir qator muassalar orqali yuborilishi kerak bo'ladi.



Bugungi kunda bojxona chegarasidan o'tish jarayonlariga vaqt cheklovlarining o'rnatilishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglarda o'z o'rnini yaxshilashiga hamda investorlarga nisbatan yengilliklar yaratilishiga olib kelmoqda. Ya'ni hozirda davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazish punktida haydovchilar, tovarlar va transport vositalarining nazorat tartib-taomillaridan o'tkazilishi "Yagona darcha" tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bunda o'tkazish punktidagi avtotransport vositasi kirishi va chiqishi vaqtlari, ularning har biri davlat nazorati organlari tomonidan tegishli nazorat tartib-taomillaridan o'tkazilishi qayd etib boriladi. Tizimda texnik nosozlik holatlari yuzaga kelganda "Yagona qayd varaqasi"dan foydalaniladi. Texnik nosozlik bartaraf etilgandan so'ng bir kunlik muddatda qog'ozdagi belgilar elektron tizimga kiritiladi.

O'tkazish punktida avtotransport vositalarining bo'lish vaqti ularning turi, o'tkazish punktining texnik holatidan kelib chiqqan holda texnologik sxemada belgilanadi, biroq ushbu ko'rsatkich quyidagi muddatlardan ortiq bo'lmagan holda belgilanishi lozim:

- yengil avtotransport vositalari uchun – 15 daqiqa;
- yuk avtotransport vositalari uchun – 30 daqiqa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, raqamli bojxona mexanizmi faoliyatning yangi yo'nalishi sifatida bojxona organlari faoliyatini anchagina soddalashtirish hamda TIF ishtirokchilari uchun yanada qulayliklar yaratishni maqsad qilib qo'yadi. Shu bilan birga, buni amaliyotga qo'llash orqali tizimda ko'plab yutuqlarga erishish mumkin. Qolaversa raqamli bojxona aslida raqamli iqtisodiyotning bir bo'lagi bo'lganligi sababli ham mavzuning naqadar dolzarbligini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini liberallashtirish va kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritish, milliy mahsulotlarimizning eksport salohiyatini oshirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf qilish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish va tadbirkorlarga qulay shart-sharoit yaratish borasida iqtisodiyotimizda, xususan, bojxona tizimida muhim islohotlar o'tkazilmoqda. Ko'zlangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi asosan bojxona organlari faoliyati samaradorligiga bog'liqdir.

Bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini bojxona organlari faoliyatiga keng joriy etish orqali "raqamli bojxona"ni tashkil etish zamon talablaridan biri hisoblanadi.

"Yagona darcha" BATning amaliyotga joriy etilishi TIF ishtirokchilari va nazorat qiluvchi organlar o'rtasida elektron ma'lumotlar almashinuvini ta'minlagan holda, mamlakatda iqtisodiy integratsiyasini oshiradi. Bu esa tovarlar bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtiradi va savdoni yengillashtiradi. Bunday mexanizmni qo'llash, rasmiy nazorat tadbirlarining samaradorligini oshirishga va resurslardan unumli foydalanish davlat organlari va TIF ishtirokchilari uchun xarajatlarni soddalashtirishga olib keladi. Shunday qilib, "Yagona darcha" BATni amalga oshirish orqali samarasiz, ortiqcha nazorat funksiyalari va tartibga solish organlari faoliyatida byurokratik to'siqlarni kamaytirish, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi bo'ylab tovar va transport vositalari harakati uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, bojxona va boshqa operatsiyalar uchun minimum vaqt sarflash, operatsiyalarni avtomatlashtirish, shuningdek, xalqaro normalar va standartlarga mos yangi ish usullari, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalarini tatbiq etishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Холопов К.В., Соколова О.В. "Использование системы МДП во внешней торговле ЕАЭС". Российский внешнеэкономический вестник. №3. 2018 й. 84-96 бетлар.
2. Куренков П.В., Котляренко А.Ф., Бузулуцкая М.В. Информационное взаимодействие между субъектами рынка транспортных услуг в системе смешанных сообщений // Информационные технологии на железнодорожном транспорте: Материалы третьей международной научно-практической конференции "ИНФОТРАНС-98". - СПб., 1998. - с. 149, 150.
3. Е.Шумпетер. Теории экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. Москва, Эксмо, 2008й. – 863 с.
4. Акрамова Ш.Г. Ўзбекистонда инновацион иқтисодиёт шаклланиши шароитида инсон капиталининг ривожланиши. Монография. -Т.: Иқтисод-Молия, 2014. -180;
5. Эрназаров О.Э. Инновациялар асосида саноат корхоналари самарадорлигини ошириш // Фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2020. 60 б.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

